

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, DAVLAT VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

To'qumbetov Og'abek Shavkat o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi oziq- ovqat xavfsizligini qanday tartibda barqarorlashtirish mahsulotlarni sifatini yaxshilash, narxlar barqarorligini ta'minlash. Ichki va tashqi bozorlarda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan oziq- ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasi aniqlash xususida ma'lumotlar berilgan. Inson hayotida ko'plab ijobjiy salbiy oqibatlarni yuzaga kelayotganini kuzatish mumkin. Shuningdek, ekologik toza mahsulotlar, Milliy oziq-ovqat sanoati, meva-sabzavotni qayta ishlash, Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ekologik toza mahsulotlar, Milliy oziq-ovqat sanoati, meva-sabzavotni qayta ishlash, Davlat Statistika qo'mitasi.

Butun yer yuzida istemolchilar kundan- kunga oshib borayotganligi tufayli oziq ovqat mahsulotlariga bo'lgan etibor tobora jadal tarzda oshib bormoqda. butun dunyoda millionlab odamlar bor, ular oziq -ovqat etishmasligidan aziyat chekishadi va ertasiga yoki kunning oxirida o'zlarini to'ydira oladimi yoki yo'qligini aniqlay olmaydilar. Shu sababli har bir davlat o'z oziq- ovqat xavfsizligini qanday tartib barqarorlashtirish uni qay tarzda Aholining faol va sog'lom hayoti uchun zarur bo'lgan yetarli miqdordagi xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari uchun jismoniy va iqtisodiy imkoniyatga ega bo'lishi, mahsulotlarni sifatini yaxshilash, narxlar barqarorligini ta'minlash, to'g'ri va sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilish orqali aholi salomatligini ta'minlash maqsadida milliy dasturlari ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy xolatini barqaror rivojlantirish, fuqarolarning sog'lig'i va xayotini yaxshilash, milliy xavfsizligi va mamlakat mustaqilligini barqaror saqlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yo'nalishda Respublikamizda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategik jihatdan maqsadli hamda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan 2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dastur rejasи ishlab chiqilgan va O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning bir nechta turlari va vazifalari ishlab chiqilgan va unga ko'ra qishloq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda foydalaniладigan yer va suv resurslarining hajmi, sifati va ularidan samarali foydalanish imkoniyatlari. Shu jumladan ekologik toza mahsulotlar ishlab

chiqarish, saqlash va sotish sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish darajasi ularni qay tartibda amalga oshirish. Ichki va tashqi bozorlarda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasi aniqlash. Milliy oziq-ovqat sanoati salohiyatining rivojlanganlik holati o'rganish va tubdan takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan.(2)

Aholi keng qatlamlarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini mahsulot turlari, hajmi va sifati bo'yicha ichki ishlab chiqarish hisobiga ta'minlash. Aholi daromadlariga mos holda iste'mol tovarlari narxlarining o'sish sur'ati, navi va sifati kafolatlangan, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan mahalliy urug' va ko'chat ta'minotining barqarorligini taminlash. Chorva hayvonlarining zotini yaxshilash va mahalliy zotlarning mahsuldorlik ishlarining tizimli tashkil etilganligi munosabatlarning bozor mexanizmlariga muvofiqligi o'rganish vazifalari belgilangan.

Ayni paytda oziq-ovqat uyushmasi meva-sabzavotni qayta ishslash, go'sht-sut, yog'-moy va oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlariga tegishli 200 ga yaqin korxonalarni birlashtirgan va ular bilan ham gorizontal ham vertikal sifatda o'zaro munosabatlar tizimi yo'lga qo'yilgan. Agar oziq-ovqat sanoatida yog'-moy va tamaki tarmoqlari salmoqli ulushni tashkil etgan bo'lsa, hozirda tarkibiy o'zgarishlar hisobiga mahsulotlarning 60 foizdan ko'prog'ini meva-sabzavotni qayta ishslash, go'sht-sut, qandolatchilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tashkil qiladi.(1)

Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yil 1-choragida 201,6 mln dollarlik bug'doy import qilingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,1 mln dollar (43,9%) ga oshgan. Shu bilan birga, mazkur davrda 803,6 ming tonna bug'doy import qilingan. Bu o'tgan yilga nisbatan 88 ming tonnaga ko'p. O'rtacha sotib olingan bug'doy narxi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,7 foizga qimmat bo'lgan. Hisob-kitobga ko'ra, bug'doy importining 62,1 mln dollarga o'sishiga joriy yilda sotib olingan bug'doy o'rtacha narxining 128,7 foizga qimmatlashganligi ta'sir ko'rsatdi. Un importi 28,8 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 mln dollar (60 foiz) ga oshgan.

Import qiymatining oshishiga sotib olingan unning o'rtacha narxini 141,2 foizga oshganligi ta'sir ko'rsatdi. Import qilingan un hajmining 10,9 ming tonnaga (60,6 foiz) oshganligi, import qiymatini 3,3 mln dollarga (30,9 foiz) oshishiga sabab bo'ldi.

Kartoshkaning import hajmi 38,6 mln dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,2 mln dollar (168 foiz) ga oshgan. Kartoshka importining 24,2 mln dollarga o'sishiga joriy yilda sotib olingan kartoshkaning o'rtacha narxini 180,3 foizga qimmatlashganligi ta'sir ko'rsatdi.

Xuddi shunday boshqa mahsulotlarni ham import hajmini oshishiga narxlarning o'zgarishi va reyeksport hajmi katta ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchi omil – bu O‘zbekiston tomonidan bir qator qo‘shti davlatlarga bug‘doy, un va o‘simlik yog‘i mahsulotlarini eksport va reyeksport qilish hajmining o‘sishi hisoblanadi.

Un eksportining ta’siri ham bug‘doy va bug‘doy unining importiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Shu davrda 85,8 mln dollarlik 270,9 ming tonna, o‘tgan yilga nisbatan 42,2 ming tonna yoki 118,5 foizga ko‘p bug‘doy uni eksport qilingan. Un importi qiymatining o‘sishiga eksport miqdorining ortganligi 17,5 mln dollar (125,7 foiz) hajmida ta’sir ko‘rsatgan. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonga import qilingan unga nisbatan eksport qilingan un hajmi 2,9 barobar ko‘pdir. Joriy yil yanvar—mart oylarida 25,7 ming tonna bug‘doy eksport qilingan. Bu o‘tgan yilga nisbatan 25,3 ming tonnaga (87,3 barobar) ko‘pdir. Shuningdek, bug‘doy reyeksportining 23,3 ming tonnaga oshganligi import hajmini 7,3 mln dollarga oshishiga omil bo‘lgan. Bug‘doy va bug‘doy unining asosiy importyori Afg‘oniston hisoblanib, joriy yil yanvar-mart oylarida 25,7 ming tonna bug‘doy va 270,9 ming tonna bug‘doy unini O‘zbekistondan import qilgan. Un eksporti o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,5 foizga yoki 42,2 ming tonnaga ko‘paygan.

Joriy yil 1-choragida 9554,4 tonna o‘simlik yog‘i eksporti amalga oshirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,6 barobarga ko‘paygan. Bu o‘z navbatida o‘simlik yog‘i importini 10,1 mln dollarga oshirgan bo‘lsa, sotib olingan o‘rtacha narxlarni 112,5 foizga o‘sishi esa import qiymatini 9,5 mln dollarga oshishiga sabab bo‘lgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari importining umumiy hajmini o‘sishiga o‘rtacha import narxlarining qimmatlashuvi qariyb 55-60 foiz darajasida ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, import qilingan mahsulotlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar eksporti hajmining o‘sishi 35-40 foiz ta’sir ko‘rsatgan.(3)

Istemolchilarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda importning ulushini kamaytirish yoki import qilmasdan mamlakatda sifatli va jahon standartlariga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalar sonini ko‘paytirish yoki mavjud korxonalarda innovasiya loyihalarini amalga oshirishni talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримкулов, К. М., Узоков, И. Э., & Абдурахманова, А. Д. (2020). КЛАССИФИКАЦИЯ И ИССЛЕДОВАНИЕ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ МЕТОДОМ ГАЗОЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ. Universum: технические науки,
2. Karimkulov, K. M., Uzohkov, I. E., & Sarikulov, M. K. (2021). Studying The Classification And Quality Of Food. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering,

3. Karimkulov, K. M., Uzohkov, I. E., & Sarikulov, M. K. (2020). Food security in Uzbekistan: Problems and solutions. South Asian Journal of Marketing & Management Research,

